



Press-reliz

Soliq ma'murchiligining samarasini oshirish orqali tadbirkorlarga teng raqobat sharoitlarini yaratish

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan **“Soliq ma'murchiligining samarasini oshirish orqali tadbirkorlarga teng raqobat sharoitlarini yaratish”** mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi. Unda Davlat soliq qo'mitasi Raisi Sherzod Kudbiyev, Davlat soliq qo'mitasi Jamoatchilik maslahat kengashi a'zolari, soliq maslahatchilari va OAV vakillari ishtirok etdi.

Bugungi kunda, tadbirkorlikni rivojlantirish borasida boshlangan islohotlar natijasida, QQS to'lovchilari soni 2016-yilga nisbatan 20 baravarga o'sdi yoki 138 mingtani tashkil etmoqda (2016-yilda – 6,6 mingta), xuddi shunday foyda solig'i to'lovchilari soni ham 18 baravarga o'sdi. O'zini-o'zi band qilgan shaxslar 1 mln nafardan oshdi.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekiston soliq sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishayotgan davlatlar ro'yxatida TOP-20 talikka kirdi. Lekin, soliq ma'murchiligi bo'yicha mukammal tizim yaratilmas ekan, “xufiyona iqtisodiyot”ga qarshi kurashish masalasi dolzarbligicha qoladi. Buning eng to'g'ri va yagona yechimi – soliq ma'murchiligining barcha yo'nalishlarga avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etishdir.

Davlat soliq xizmati organlari tizimida bu borada salmoqli qadamlar tashlanmoqda. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlarni qayta ishlash markazining quvvati o'tgan yilga nisbatan 8, axborotni qayta ishlash tezligi esa 29 baravarga oshirildi. Hozirda soliq to'lovchilarning 95 foizi soliq majburiyatlarini o'z vaqtida ixtiyoriy bajarmoqda. (Bungacha 80 foiz atrofida bo'lgan). Bu raqamlashtirish yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlarning dastlabki natijasidir.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrda qabul qilingan 595-son qarori soliq ma'murchiligining yangi bosqichini boshlab beradigan konseptual hujjat bo'ldi.

Unda uchta asosiy yangilik mavjud:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini soliq organlarida maxsus ro'yxatdan o'tkazishni soliq xavfini baholash asosida amalga oshirish.

Yangi tartibga ko'ra, joriy yilning 22-dekabridan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazishda soliq to'lovchilarning soliq xavfi

darajasi o'rganiladi. Maxsus ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha arizalar 7 kun ichida ko'rib chiqiladi. Arizani ko'rib chiqishning birinchi bosqichida soliq to'lovchilarning soliq xavfi avtomatlashtirilgan tizim orqali o'rganiladi va natijalarga ko'ra ular soliq xavfining **yuqori**, **o'rta** yoki **past** darajalari bo'yicha toifalarga ajratiladi.

2. Tadbirkorlarning aktivlarni hisobga olishning yangi mexanizmi – “E-aktiv” avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

Ushbu axborot tizimi soliq organlariga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar-moddiy resurslarni hisobini yuritish, tahlil qilish, ularning harakatini masofadan hisobga olish, har bir ombor kesimida kirim-chiqim qilingan yoki qoldiq tovarlar ro'yxatini shakllantirish imkonini beradi.

QQS to'lovchilar va ustav jamg'armasida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan yuridik shaxslar 2022-yil 1-yanvardan **“E-aktiv”** axborot tizimidan foydalanishi majburiy hisoblanadi.

3. Ijara munosabatlarining yangi tizimi – E-ijara

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijara shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo'yish uchun “Ko'chmas mulk ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish” – **“E-ijara”** elektron xizmati yaratilib, “ijara.soliq.uz” internet manzilida sinovdan o'tkazilmoqda.

Ko'chmas mulk ijara shartnomalari majburiy ravishda soliq organlarida elektron shaklda hisobga qo'yish amaliyoti 2022-yil 1-yanvardan joriy etiladi.

Bundan tashqari, matbuot anjumani davomida Elektron hisobvaraqa-faktura (EHF) hamda Mahsulot va xizmatlarning identifikatsion kodi (MXIK) tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklar, xususan, tizimdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida kiritilayotgan o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, joriy etilishi rejalashtirilayotgan “E-imtiyoz”, “Avtotaqqoslash” (Avtoslicheniye), Zanjir to'liqligini monitoring qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi dasturiy mahsullari taqdimotlari o'tkazildi.

Soliq maslahatchilari va jamoatchilik kengashi a'zolari sohani raqamlashtirish borasida olib borilayotgan ishlarni yuqori baholab, yangi dasturiy mahsullar yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini bildirdi.

Matbuot anjumanida ommaviy axborot vositalari vakillari ham faol ishtirok etdi. Ular nafaqat o'zlarini qiziqtirgan savollarga, balki faoliyati doirasida soliq to'lovchilar tomonidan yo'llangan murojaatlarga ham mutaxassislardan batafsil javob oldi.

Press-relizning elektron shakli